

MAXSUS EHTIYOJLARGA EGA BOLALARNI O'QITISHDA PSIXOLOGIK YORDAM

Mo'minova Mukarram Daminovna
Xolbayeva Zuloyho Xoldarovna

Surxandaryo viloyati uzun tumani 1-sonli politexnikum 998994262632

Annotatsiya: Ushbu maqolada maxsus ehtiyojlarga ega bolalarni o'qitish jarayonida psixologik yordamning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Muallif tomonidan psixologik qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari, o'qituvchi va psixolog hamkorligining ahamiyati hamda samarali usullar tahlil qilingan. Shuningdek, bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, o'ziga ishonchini oshirish va ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda psixologik yordamning ta'siri ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: maxsus ehtiyojli bolalar, psixologik yordam, o'qituvchi, emotsional qo'llab-quvvatlash, inklyuziv ta'lim.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение психологической помощи в процессе обучения детей с особыми образовательными потребностями. Автор анализирует основные направления психологической поддержки, важность сотрудничества учителя и психолога, а также эффективные методы работы. Отмечается влияние психологической помощи на формирование уверенности, эмоциональное равновесие и социальную адаптацию детей.

Ключевые слова: дети с особыми потребностями, психологическая помощь, учитель, эмоциональная поддержка, инклюзивное образование.

Annotation: This article explores the role and importance of psychological support in teaching children with special educational needs. The author analyzes the main areas of psychological assistance, the significance of cooperation between teachers and psychologists, and effective intervention methods. The study highlights the impact of psychological support on children's emotional stability, self-confidence, and social adaptation.

Keywords: children with special needs, psychological support, teacher, emotional assistance, inclusive education.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi har bir bolaning shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlarini inobatga olishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, maxsus ehtiyojlarga ega bolalar ta'limini tashkil etish, ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonda psixologik yordam alohida o'rin tutadi, chunki bolaning ruhiy holati uning o'qish, rivojlanish va ijtimoiy moslashish jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik yordamning ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak: Maxsus ehtiyojlarga ega bolalar — bu jismoniy, aqliy, sezgi, nutqiy yoki ruhiy rivojlanishida muayyan cheklavlari bo'lgan bolalardir. Ular uchun psixologik yordam ta'lim jarayonining ajralmas qismi

hisoblanadi. Psixologik yordamning asosiy maqsadi — bolaning emotsional barqarorligini saqlash, o'ziga ishonchini oshirish va jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishdir. Bunday bolalarda ko'pincha o'zini past baholash, muloqotdan chetlashish yoki o'qishga qiziqishning pasayishi kabi holatlar kuzatiladi. Shu sababli, psixologlar ularning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib, individual rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqadilar. Maxsus ehtiyojli bolalarni o'qitishda o'qituvchi va psixologning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Psixolog bola psixikasini o'rganadi, o'qituvchiga mos metod va yondashuvlarni tavsiya qiladi. O'qituvchi esa bu tavsiyalar asosida dars jarayonini moslashtiradi.

Masalan, diqqatni jamlay olmaydigan bola uchun dars vaqtini qisqa bo'limlarga bo'lish, ko'rgazmali vositalardan foydalanish yoki o'yin elementlarini qo'shish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin.

Psixologik yordamning asosiy yo'nalishlari

1. Emotsional yordam: bolada o'zini qadrlash, xavfsizlik hissi va ijobiy fikrlashni shakllantirish. Bu orqali bola o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, boshqalar bilan ijobiy suhbat qilishga harakat qiladi, uni boshqalar tushunayotganidan va u ham boshqalarni tushunayotganidan o'zini kuchli va hissiy sog'lom his qila boshlaydi.

2. Ijtimoiy moslashuv: bola tengdoshlari bilan muloqot qilish, jamoada o'z o'rnini topish ko'nikmalarini rivojlantirish. Bu uni boshqalar bilan samarali muloqot qilish jarayonida muhim jarayon, bola tengdoshlari kabi o'zini ham sog'lom his qila boshlaydi.

3. Motivatsiyani oshirish: kichik yutuqlarni e'tirof etish orqali o'qishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish. Ular bajargan oddiy va sodda ishlari uchun ularga sovg'alar berish, ularni ishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga yordam beradi, bola o'qiyotganda unga to'g'ri fikrlar aytish va uni yana ham ko'proq maqtash uni o'qishga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

4. Ota-onalar bilan ishlash: ota-onalarni bolani psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yondashuv usullariga o'rgatish. Ota - onalar bu jarayonning eng muhim qismi hisoblanadi, bu davrda farzandiga aytilgan bitta noto'g'ri so'z ham uning jamiyatga va odamlarga bo'lgan ishonchini pasayishiga sababchi bo'ladi, shuning uchun bolani koyimaslik, unga ortiqcha so'z ishlatmasdan unga to'g'ri tushuntirish bu eng mas'uliyatli vazifalardan biri.

Psixologik yordamda qo'llaniladigan samarali usullar:

Art-terapiya – bola o'z his-tuyg'ularini rasm, rang yoki shakllar orqali ifodalaydi. Musiqa terapiyasi – musiqa orqali tinchlanish va ijobiy emotsiyalarni uyg'otish. O'yin terapiyasi – o'yin orqali ijtimoiy va hissiy rivojlanishni ta'minlash. Individual suhbatlar – bolaning ichki kechinmalarini tushunish va ijobiy yo'naltirish. Bu usullar bola ruhiyatiga bosim o'tkazmasdan, tabiiy tarzda o'zini ifoda etish imkonini beradi. Bu usullar orqali bola o'zini sog'lom his qiladi, to'g'ri fikrlay oladi, jamiyatga qo'shilishga, odamlar bilan samarali muloqot qilishga va o'zini xotirjam his qilishga yordam beradi.

Xulosa: Maxsus ehtiyojlarga ega bolalarni o'qitishda psixologik yordam — bu nafaqat ularning ta'limdagi muvaffaqiyati, balki shaxs sifatida shakllanishi uchun ham zarur shartdir. Ruhiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlov orqali bola o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi mumkin. Shu bois o'qituvchi, psixolog va ota-onalarning hamkorligi maxsus ta'limning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmatova D. Maxsus pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori. – Toshkent, 2020.
4. Sodiqova N. Psixologik xizmatning maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashdagi o'rni. – Pedagogika jurnali, 2022.
5. UNESCO. Inclusive Education Guidelines. – Paris, 2020.
6. Vygotskiy L.S. Defektologiya asoslari. – Moskva, 1991.